



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BILISH
JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA MODELLASHTIRISH
FAOLIYATI VA UNING AHAMIYATI**

Ollomova Ravshana Jumanazar qizi

Xorazm viloyat Xonqa tumani 35-sontum umumta'lim maktabi

Amaliyotchi psixolog

Hozirgi kunda jamiyatimiz tomonidan yosh avlodni yetuk shaxs qilib tarbiyalashga ko'plab imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Xususan maktabgacha ta'limga muassasasi tarbiyanuvchilarini maktabga tayyorlash jarayonini samarali olib borish uchun ko'plab faoliyat, yo'nalish va metodlardan foydalanilmoqda, shulardan biri modellashtirish faoliyati hisoblanib, modellashtirish bolaning bilish jarayonlarini rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Modellashtirish—birorta ijtimoiy ruhiy, tabiiy hodisalarini ularni modellarini yaratish orqali o'rghanish. Model –bu o'r ganilayotgan predmetlarni asosiy hususiyatlarni aks ettiruvchi ob'ektlar tizimi. Modellashtirish muammosiga almiy yondashuvlar tahlilida quyidagi yo'nalishlar keltirilgan:

- 1) modellashtirishni intellektual qobiliyatlarni negizi sifatida o'rghanish,
- 2) modellashtirishni turli ma'lumotlarni yetkazib berish va o'r ganishning metodi sifatida,
- 3) modellashtirishni belgi va timsollar bilan ishlash faoliyatining bosqichi sifatida o'r ganilganligi ko'rsatilgan.

Birinchi yondashuv L.A. Venger tomonidan ishlab chiqilgan, u modellashtirish faoliyatini aqliy qobiliyatlarni negizi deb belgilagan. Modellar intellektual masalalarni yechish vositasi hisoblanadi. Modellashtirish maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bo'lgan faoliyat shaklidir. Modellashtirish faoliyatini elementlari bolalarni barcha o'yinlarida uchraydi. Aynan shunday faoliyat shakllari bu yosh davriga xos bo'lgan psixik taraqqiyotni ta'minlovchi omil vazifasini bajaradi, modellashtirish faoliyatidagi komponentlar, maktabgacha yoshdagi bolalar psixik taraqqiyoti uchun ahamiyatlidir. Bu faoliyat shakli ko'rsatadigan ta'sir, bolani rivojlantirish vazifalari va yosh vazifalari bilan ham bog'liq. L.A. Venger rahbarligida o'tkazilgan tajribalar, bolalarni intellektual taraqqiyotida modellashtirishni imkoniyatlari keng ekanligini ko'rsatib berdi. V.V. Xolmovskaya, Ye.L. Agaeva, L.E. Jurovava boshqalar olib borgan tajribalar bunga misoldir.



Ikkinch yo'nalish modellashtirishni o'rgatishning samarali metodlaridan biri sifatida baholaydi. Maktabgacha yoshdagi bolani tafakkuri ko'rgazmali va obrazli bo'lgani uchun modellashtirish bilim berishni samarali turidir. A.I.Kirillova, Y.M.Pozdnyakova, L.P.Aroyan va boshqalarning tadqiqotlarida modellar qo'llanilgan. Modellashtirish o'rgatishning ko'rgazmali amaliy usuli bo'lib, unda model yordamchi vosita vazifasini bajaradi. Modelda o'rganilayotgan predmetni muhim jihatlari aks etishi kerak.

Uchinchi yo'nalishdagi tadqiqotlar modellashtirishni belgi va timsollar bilan ishslash faoliyatining bosqichi sifatida o'rganadi. V.V.Davqdov, N.G.Salmina, Ye.E.Sapogova, G.A.Glotova va boshqalar bu sohada faoliyat yuritganlar. Bu tadqiqotlarda modellashtirish mustaqil faoliyat sifatida tahlil qilinadi va uning xatti harakatlari belgilab beriladi. N.G.Salminaning fikricha timsollar bilan ishslash faoliyatining shakllanishini asosiy sharti bu semiotik qonuniylatlarni o'zlashtirishdir. Bu yo'nalishda ham modellashtirish faoliyatini rivojlanish va o'zlashtirilishi (ichki planga o'tishi) sharoitlari tahlil qilinmaydi. Xorij psixologiyasidagi modellashtirishga bog'liq materiallarni tahlili shuni ko'rsatdiki, bu faoliyat timsollar muammosi bilan bog'liq xolda tadqiq qilingan ekan. J.Piaje, A.Vallon, G.Ebli J.Marko timsollar muammosini psixik va intellektual taraqqiyotga bog'liq holda tahlil qilganlar, va timsollarni o'zlashtirish faoliyatida ijtimoiy omilni asosiy deb xisoblaganlar.

Zamonaviy Psixologiya fanida modellashtirish muammosi keng o'rganilgan. Modellashtirishni bir necha xil yondashuvda o'rganish mumkin. Aqliy darajasini rivojlanishini modellashtirishda o'rganish. Modellashtirishni ta'lim metodi sifatida aniqlash va o'rganuvchilarga yetkazishning usullari.

A.I.Kirillova maktabgacha yoshdagi bolalarda matematikani o'rganishda aniq modellardan foydalandi. U maktabgacha yoshdagi bolalarni guruhlarida modellashtirishni turli yo'nalishlarini qo'lladi va bu yo'nalishlarni ketma-ketligi quyidagicha:

- 1) modellarni almashtirish darajasi
- 2) modellarniyaratish darajasi
- 3) modellarni qo'llash darajasi

Ushbu bosqichlarni nafaqat bu yo'nalishlarda ishlatish mumkin, balki bu izlanishlar qobiliyatlarni oshiradi. L.M. Xalizeyeva maktabgacha yoshdagi bolalarni o'stirishga qaratilgan fikrlash qobiliyatini o'stirishda grafik modellashtirishdan foydalanishni tavsiya etadi va bolani shu orqali fikrlash qobiliyatini o'stirishga aytadi. Y. A. Pozdnyakova modellashtirish metodini qo'llashdagi muammolarni o'rgandi. Uning fikricha maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyolov guruhi



uchun oddiy narsalar emas, konkret murakkabroq narsalar zarur deb hisoblaydi. Modellashtirish metodi ta’lim- tarbiya jarayonida pedagog oldidaqator imkoniyatlarni ochib beradi.L.P. Aroyan maktabgacha yoshdagi bolalarni ta’lim jarayonida ta’sirini oshirishni tahlil qiladi. U o’zining ishida maktabga bo’lgan tayyorgarlikni va ideal rivojlantirishni ko’rsatib o’tdi va ularni formaga soldi. L.P. Aroyan belgilar va ramzlar o’rganishni tavsiya etadi. Uchinchi yo’nalish izlanishlari modellashtirishni belgi va ramzlar faoliyatini ko’rib chiqadi. V.V.Davidov Psixologiyada modellashtirish faoliyatini ta’limtarkibiga kirishini ko’rsatadi. U modellashtirishni ta’lim faoliyatini komponenti deb ko’rib chiqadi.Unga belgilar va ramzlarni qo’shish orqali kengaytirish mumkin. Belgilar va ramzlar N.G.Salnima tomonidan chuqurroq o’rganilgan.U bu yo’nalish funksiyalarni tahlil qiladi.

Uning fikricha yo’nalish faoliyati bir necha funksiyalarni bajarish mumkin.

1 Almashtirish bu funksiya narsalarni belgilar va ramzlar yoki boshqa vositalar bilan almashtirishga yo’naltirilgan.

2 Kodlash bilan funksiya shundan iboratki ma’lum bir habar yoki ma’lumotni qo’llashdan iborat.

3 Sxemalashtirish bunda borliqdagi jarayonlarni mo’ljal olishni orintirovka o’rgatadi.

Ta’lim yo’nalishida belgilar va ramzlar vositalarini qo’llash naraziy fikrlarni formalashtirish bilan bog’liqdir.N.G. Salminani aytishicha so’nggi paytlarda bu holat baxslarga sabab bo’ladi. Uning fikricha modeliar o’zida aniq konstruktarni ko’rsatadi va ular bilan ishslash aniq vizualizatsiya fikrlash metodini qo’llashni talab qiladi. E. E. Sapogova maktabgacha bo’lgan davrda modellashtirish faoliyatini va bularni ketma-ketlik bosqichlarini ko’rsatib beradi.Belgilar va ramzlar ko’p bosqichli ta’lim hisoblanadi. Bu ta’lim subyekti obyektiv dunyoga moslashtirish o’ziga tanish vositalar yordamida turadi. Ramziy faoliyat ideal faoliyat hisoblandi. Olimlar tomonidan quyidagi modellashtirishlar tavsiya qilinadi. Modellashtirish bu shunday faoliyatki u maktabgacha yoshdagi bolalar bilimlarini yuzaga chiqarishdagi vositadir.Modellashtirish faoliyatida bola biror premet yoki jarayonni o’rganadi. Biz o’rgangan bu bosqichlar yuqoridaqilarni tanqid qilmaydi balki ularni ochib beradi Birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarni psixik rivojlanishida bu faoliyat asosiyalarlaridan biri ekanligini ko’rsatadi.Ikkinchidan, modellashtirishning alohida harakatlarining aniqlashtirib beradi. Uchinchidan modellashtirishni o’zlashtirishdagi muhim jihatlarini ko’rsatib beradi. Ushbu ma’lumotlar maktabgacha bo’lgan ta’lim bolalarni aqliy salohiyatini



o'sish jarayonini boshqarish va yanada effektiv tarzda tashkillashtirishni imkonini beradi.

Xulosa Demak modellashtirish faoliyati bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi faoliyat sifatida ta'lim tarbiya jarayonida qo'llanishi mumkin. Modellashtirish faoliyati idrok va tafakkur jarayonlarini rivojlantirish bilan birga maktab ta'limiga tayyorgarlikni ham yuqori darajaga chiqaradi. Bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirishi imkoniyatlari katta va asosan ta'lim va kattalar bilan muloqot sharoitida samarali kechadi. Bundan tashqari bolalarning bilish jarayonlarini turli metodika, o'yinlar va mashg'ulotlar bilan ham rivojlantirish mumkin. Modellashtirish faoliyati bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi faoliyat sifatida ta'lim tarbiya jarayonida qo'llanishi maqsadga muvofiq.

III. Kitoblar va risolalar

1. Mamedov K.K Maktabgacha yoshdagи bolalar va o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari.: Avtoref. diss .d. psixol. nauk.- T.:UzMU, 2004.- 32b.
2. Nishanova. Z. T. "Bolalar psixologiyasini o'qitish metodikasi". Toshkent. 2005 .165 b
3. Nishanova Z.T., Kurbanova Z., Abdiev S. Psixodiagnostika.- T.: TGPU, 2008.- 315b.
4. Haydarov. F.I., Halilova. N. I. "Umumiy psixologiya". Toshkent. TDPU 2010 330 b
5. G'oziev. E.G'. "Psixologiya". Toshkent. "O'qituvchi" 1994 .223 b
6. G'oziyev E.G' « Ontogenet psixologiyasi » Toshkent. O'ZMU. 2012.423 b.